



WAYS OF APOLOGIZING AND RESPONDING IN THE PERSIAN LANGUAGE

Sevinch Kuchkorova

Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies

2nd-year student, Persian-English group

Tashkent State University of Oriental Studies

quchqorovasevinch52@gmail.com

S. Sulonkhojayeva

Senior Lecturer at the Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies, TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Persian language, apologizing, apology expressions, response options, expression forms, usage features, frequency of use.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes expressions of apologizing and responding to apologies in the Persian language, as well as their usage features. In the course of the study, commonly used expressions in everyday speech such as “ببخشید”, “شرمندە”, “معذرت می‌خواهم”, “متأسفم”, “اشکالی ندارد”, “مهم نیست” are examined as examples. The article discusses their use in formal and informal situations, as well as factors related to the relationship between interlocutors, age, social status, and speech context. Various forms of expressing apologies and corresponding response options are also considered. Based on examples, the article highlights the unique features of expressing apologies in Persian and demonstrates their role in speech culture.

FORS TILIDA KECHIRIM SO‘RASH VA JAVOB BERISH USULLARI

Sevinch Quchqorova

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

2-kurs fors-ingliz guruhi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

quchqorovasevinch52@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

S. Sulonxodjayeva

TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: fors tili, kechirim soʻrash, uzr iboralari, javob variantlari, ifoda shakli, qoʻllanish xususiyatlari, qoʻllanish chastotasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada fors tilida kechirim soʻrash va unga javob berish iboralari hamda ularning qoʻllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida kundalik nutqda keng ishlatiladigan «مَعذِرَتٌ», «شَرْمَنْدِه» «بِخَشِيدٌ», «مَتَأَسِفٌ» va bu iboralarga javob shaklida «اشكالى ندارد», «مهم نيست» kabi ifodalar misol sifatida oʻrganiladi. Ushbu iboralarning rasmiy va norasmiy vaziyatlarda qoʻllanishi, suhbatdoshlar oʻrtasidagi munosabat, yosh, ijtimoiy mavqe va nutq muhiti bilan bogʻliq jihatlari yoritiladi. Shuningdek, kechirim soʻrash jarayonida qoʻllaniladigan turli ifoda shakllari hamda ularga beriladigan javob variantlari koʻrib chiqiladi. Misollar asosida fors tilida uzr ifodalashning oʻziga xos jihatlari ochib berilib, uning nutq madaniyatidagi oʻrni koʻrsatib beriladi.

СПОСОБЫ ИЗВИНЕНИЯ И ОТВЕТА В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Севинч Кучкорова

Высшая школа иранистики и афганистики

Студентка 2 курса, персидско-английская группа

Ташкентский государственный университет востоковедения

quchgorovasevinch52@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

С. Султонходжаева

Старший преподаватель

Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: персидский язык, просьба прощения, выражения извинения, варианты ответов, формы выражения, особенности использования, частота употребления.

Аннотация: В данной статье анализируются выражения просьбы прощения и ответа на извинения в персидском языке, а также особенности их использования. В ходе исследования рассматриваются часто используемые в повседневной речи выражения «بِخَشِيدٌ», «شَرْمَنْدِه», «مَعذِرَتٌ مِیْ خَوَاهَم» и ответы на них, такие как «اشكالى» «مهم نيست» «ندارد». Освещается их применение в официальных и неофициальных ситуациях, а также аспекты, связанные с отношениями между собеседниками, возрастом, социальным статусом и речевым контекстом. Рассматриваются различные формы выражения извинения и варианты ответов на них. На основе примеров раскрываются особенности выражения извинения в

Kirish. Til insonlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim vositasi hisoblanadi. Har bir tilda muomala jarayonida turli nutq shakllari qo'llaniladi va ular orqali inson o'z fikri, munosabati hamda his-tuyg'ularini ifodalaydi. Shunday nutq shakllaridan biri — kechirim so'rashdir. Kechirim so'rash muloqot madaniyatining muhim qismi bo'lib, u insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etadi.

Fors tilida ham uzr so'rash va unga javob berish uchun turli iboralar mavjud. Ular vaziyatga, suhbatdoshlarning o'zaro munosabatiga, yosh va ijtimoiy mavqega qarab farqlanadi. Masalan, kundalik nutqda ishlatiladigan iboralar bilan rasmiy muhitdagi ifodalar o'rtasida ma'lum tafovut mavjud.

Mazkur maqolaning maqsadi fors tilida kechirim so'rash va unga javob berish iboralarini o'rganish, ularning qo'llanish holatlarini tahlil qilish hamda rasmiy va norasmiy nutqdagi xususiyatlarini yoritishdan iborat. Quyida biz bir nechta misollarni keltiramiz. Bu misollar bilan birgalikda shu iboralar ishtirokida jumlar ham ko'rib chiqamiz.

1. **بيخشيد** – “Kechirasiz”

Kundalik muloqotda eng ko'p ishlatiladigan, umumiy kechirim ifodasi. Shuningdek, e'tibor jalb qilish vazifasini bajaradi. Masalan, notanish kishidan yo'l so'rash yoki kichik noqulaylik yuz berganda ishlatiladi. Bu iboraga esa javoban “مشکلی نیست” “Muammo yo'q” odatda bu ibora norasmiy va yarim rasmiy javob berish shakli hisoblanadi. Shunga qaramay eng umumiy va keng qo'llaniladigan shakldir.

a) **اميدوارم منو بيبخشيد** – “Umid qilamanki, meni kechirasiz”

Bu shakl aybdorlik hissini va muloyimlikni kuchaytiradi. Odatda norasmiy yozishmalarda yoki muhim vaziyatlarda ishlatiladi. Bu iboraga javob shaklida “می بخشمت” “Seni kechiraman” iborasini ishlatishimiz mumkin. Odatda bu iboralar juftligi o'zidan oldin izoh talab qiladi.

b) **بيخشيد اومدی خونه نبودم** – “Kechirasiz, uyda yo'q edim”/ “kechirasiz, kelganingizda uyda emas edim”

Mazkur ifoda, odatda, bir shaxs boshqa bir shaxsni uyda topa olmagan holatda, ya'ni rejalashtirilmagan yoki oldindan kelishilmagan tashrif amalga oshgan vaziyatda qo'llanadi. Grammatik jihatdan ibora ikki qismdan tashkil topgan: “بيخشيد” — kechirim so'rash shakli va “اومدی خونه نبودم” — kelish jarayonida uyda bo'lmaganlikni bildiruvchi gap. Bu ibora norasmiy va yarim norasmiy muloqotda keng qo'llanadi hamda kundalik nutqda qo'llanish darajasi yuqori hisoblanadi. Mazkur kechirim iborasiga odatda “هیچ اتفاقی نیافتاده” (“Hech narsa bo'lmadi”) shaklidagi javob qo'llanadi. Ushbu javob orqali suhbatdosh vaziyatni salbiy baholamasligini va kechirimni qabul qilganini bildiradi. Bu esa muloqotda ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

c) “Kechirasiz, sizni xafa qilmoqchi emas edim” – ببخشی نمی خواستم ناراحت کنم

Niyatni tushuntirish orqali muloyimlikni oshirish. Odatda shaxsiy munosabatlarda, oilada yoki do‘stlar orasida qo‘llaniladi. Bu iboraga javoban “—” “Allaqachon unutdim” iborasini ishlatishimiz mumkin.

d) “Kechirasiz, aytolmayman” – ببخش نمی توانم بهت بگم

Fors tilida ma’lumot berishdan bosh tortish yoki ayrim sabablarga ko‘ra biror narsani ayta olmaslik holatini ifodalash uchun “ببخش نمی توانم بهت بگم” iborasi qo‘llaniladi. Ushbu iboraning to‘g‘ri tarjimasini: “Kechir, senga ayta olmayman” shaklida beriladi. Ba’zi holatlarda “Uzr, buni senga aytolmayman” tarzida ham tarjima qilinadi. Grammatik jihatdan ibora ikki qismdan tashkil topgan: “ببخش” — kechirim so‘rashning buyruq maylidagi norasmiy shakli (ya’ni yaqin munosabatdagi shaxsga murojaat), hamda “نمی توانم بهت بگم” — “senga ayta olmayman” ma’nosini bildiruvchi fe’l birikmasi. Bu shakl “بهت” senga qo‘llanilgani sababli norasmiy, yaqin munosabatdagi suhbatdoshlar o‘rtasida ishlatiladi. Ushbu iboraga javoban ko‘pincha “مهم نیست” “Muhim emas” shakli qo‘llaniladi.

e) “Kechirasiz, shoshilyapman” – ببخشید عجله دارم

Mazkur ibora ikki qismdan iborat: “ببخشید” — rasmiy va yarim rasmiy kechirim shakli hamda “عجله دارم” — “shoshilinch ishlarim bor” yoki “shoshilyapman” ma’nosini bildiradi. “ببخشید” shakli ko‘proq hurmat ifodalovchi murojaat bo‘lib, notanish shaxslar, kattalar yoki rasmiy muhitda qo‘llaniladi. Shu sababli ushbu ibora rasmiy va kundalik vaziyatlarda ham ishlatilishi mumkin. Mazkur kechirim iborasiga javoban ko‘pincha “مشکلی نیست” (“Muammo yo‘q”) shakli qo‘llaniladi.

f) “Kechirasiz, bugun vaqtim yo‘q / Hozir vaqtim yo‘q” – ببخشید امروز وقت ندارم / شرمنده الان وقت ندارم

Rad javobi berayotganda muloyimlikni saqlash vositasi. Masalan, birov sizni uchrashuvga chaqirsa, lekin boshqa ishlar bilan band bo‘lsangiz, ushbu ibora munosabatlarni buzmasdan rad javob berishga yordam beradi. Bunga muqobil javob shaklida “و اسم مهم نیست” “Men uchun muhim emas” iborasini ishlatishimiz mumkin. Yana bir jihatini izohlab o‘tib ketishni lozim topdik.

ببخشید— neytral, ko‘p kontekstli va rasmiy yoki yarim rasmiy vaziyatlarga mos. Bu iboraning ko‘plab ma’nolarini ko‘rishimiz mumkin masalan: “kechirasiz”, “uzr so‘rayman”, “ruxsat bering” kabi ma’nalarda ham ishlatiladi.

شرمنده – hissiy, shaxsiy kontekstlarga mos, rasmiy muhitda ishlatilishi mumkin, lekin ko‘proq samimiy, noformal yozishmalar va suhbatlarda qulay. Juda rasmiy hujjatlarda “ببخشید” va “معدرت” iboralarini ishlatgan afzalroq.

2. “Kechirasiz, kech keldim / Haqiqatan ham uzr” – شرمنده، دیر رسیدم / واقعا شرمنده

Haqiqiy kechikish yoki xato yuz berganda ishlatiladi. “واقعا” bu soʻzni “haqiqatdan ham” deb tarjima qilishimiz mumkin. Ushbu ibora ish joyi, doʻstlar yoki oilaviy vaziyatlarda kechikish uchun keng qoʻllaniladi. Bu iboraga quyidagicha javob berishimiz mumkin masalan:

“اتفاق می افته” “Boʻlib turadi”. Bunga sinonim tarzida

“اشکالی ندارد” “Hechqisi yoʻq” iborasini ham ishlatishimiz mumkin. Bu ikki ibora ham norasmiy hisoblanadi, shunday boʻlishiga qaramay omma orasida keng qoʻllaniladi.

a) “Kechirasiz, naqd pulim yoʻq” – شرمندہ پول نقد ندارم

Fors tilida moddiy imkoniyat bilan bogʻliq noqulay vaziyatlarda kechirim soʻrash maqsadida “شرمندہ پول نقد ندار” iborasi qoʻllaniladi. Ushbu iboraning toʻgʻri tarjimasi: “Uyaldim, naqd pulim yoʻq” yoki “Kechirasiz, yonimda naqd pul yoʻq” shaklida berilishi mumkin. Mazkur iborada «شرمندہ» soʻzi lugʻaviy jihatdan “uyalgan”, “xijolatdaman” maʼnosini bildiradi va norasmiy muloqotda keng qoʻllaniladi. «پول نقد ندارم» esa “naqd pulim yoʻq” degan maʼnoni anglatadi. Iboraning umumiy mazmuni suhbatdoshdan maʼlum darajada uzr soʻrashni va vaziyatni tushuntirishni ifodalaydi. Ushbu ifoda asosan kundalik hayotda, doʻstlar yoki tanishlar oʻrtasida ishlatiladi. Rasmiy muhitda kamroq uchraydi, chunki “شرمندہ” shakli koʻproq samimiy va norasmiy xarakterga ega. Qoʻllanish darajasi oʻrtacha boʻlib, ayniqsa savdo yoki qarz masalalarida uchrashi mumkin. Mazkur iboraga javoban koʻpincha «اهمیتی نداره» “Ahamiyati yoʻq” shakli ishlatiladi. Ushbu javob orqali suhbatdosh vaziyatni jiddiy baholamasligini va kechirimni qabul qilganini bildiradi. Shu tariqa muloqotdagi noqulaylik yumshatiladi va ijtimoiy muvozanat saqlanadi.

b) “Kechirasiz, mehmonim bor” – شرمندہ مهمون دارم

Mazkur ibora ikki tarkibiy qismdan iborat: “شرمندہ — norasmiy kechirim va xijolat ifodasi hamda “مهمون دارم — “mehmonim bor” maʼnosini bildiruvchi feʼl birikmasi. “شرمندہ” soʻzi rasmiy shakl emas, balki koʻproq samimiy, kundalik muloqotga xos ifodadir. Shu sababli ushbu ibora asosan norasmiy va yarim norasmiy vaziyatlarda qoʻllaniladi. Bu ifoda odatda taklifni rad etishda, uchrashuvga bora olmaslikda yoki suhbatni davom ettira olmaslik holatida ishlatiladi. Kundalik muloqotda qoʻllanish darajasi oʻrtacha hisoblanadi, ayniqsa oila va doʻstlar davrasida keng uchraydi. Mazkur iboraga javoban koʻpincha “مشکلی نیست” “Muammo yoʻq”, “اشکالی ندارد”, “Hechqisi yoʻq” soʻz birikmalari ishlatiladi.

3. “Mening xatoyim edi” – تقصیر من بود / اشتباه از من بود

Javobgarlikni qabul qilish va munosabatlarni tiklash. Ushbu ibora oʻz aybini tan olish orqali ijtimoiy nizolarni yumshatadi va muloqotni ijobiy davom ettirishga yordam beradi. Ushbu ikki ibora rasmiy va norasmiy ibora hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda xalq orasida ham keng qoʻllaniladi. Bu iboralarga quyidagicha javob berish mumkin.

“Yana takrorlanmasin” — «دیگه تکرار نشه», “Oʻzingni ayblama”, “خود تو سرزنش نکن”

4. “juda afsusdaman” - خیلی متأسفم

Fors tilida متأسفم خیلی iborasi “juda afsusdaman” degan ma’noni bildiradi. Bu ibora oddiy متأسفم ga qaraganda kuchliroq afsus yoki uzrni ifodalaydi. Odatda inson o‘z xatosini tan olib, chuqur afsus bildirganida yoki kimnidir xafa qilib qo‘yganida ishlatiladi. Shuningdek, noxush voqea yoki salbiy holat yuz berganda ham ushbu ibora orqali afsus yoki hamdardlik bildiriladi. Fors tilining kundalik nutqida متأسفم خیلی iborasi ham tez-tez uchraydi. U rasmiy va norasmiy suhbatlarda ham ishlatilishi mumkin. Biroq oddiy uzr so‘rash holatlarida ko‘pincha ببخشید (kechirasiz) yoki معذرت می‌خواهم (uzr so‘rayman) kabi iboralar ishlatiladi. esa odatda kuchliroq afsus yoki jiddiy uzr bildirishda qo‘llanadi.

a) “Afsus, aralashmoqchi emas edim” – متأسفام نمی خواستم دخالت کنم

Xato yoki tushunmovchilik yuz berganda ijtimoiy muloyimlikni saqlash. Masalan, biror mavzuga kutilmaganda aralashish holatlarida ishlatiladi. Ushbu ibora norasmiy bo‘lishiga qaramay xalq orasida keng tarqalgan iboralar sirasiga kiradi. Bungs javob shaklida”

«نگران نباش» — “Xavotir olma” iborasini ishlatishimiz mumkin.

5. “Uzr so‘rayman” – معذرت می‌خواهم .

Ushbu ibora rasmiy va yarim rasmiy vaziyatlarda ishlatiladi. Nutqda u shaxsning o‘z aybini tan olishini bildiradi va ijtimoiy munosabatlarni tiklashga xizmat qiladi. Masalan, kechikib kelgan yoki birovning ishiga to‘sqinlik qilgan shaxs “معذرت می‌خواهم” deydi, bu esa hurmat va muloyimlikni ifodalaydi. Odatda bu iboraning og‘zaki shakli “معذرت می‌خوام” ko‘rinishida ishlatiladi. Bu iboraga shu tarzda javob berishimiz mumkin: “Uzr so‘rash shart emas”, “معذرت خواهی لازم نیست”. Bu javob berish shakli odatda rasmiy va keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi.

a) “Uzr, bu mening joyim edi” – معذرت می‌خوام جای منه

Mazkur ibora: «معذرت می‌خوام» — rasmiyroq kechirim shakli hamda «جای منه» — “bu joy meniki” degan ma’noni bildiradi. «معذرت می‌خوام» ifodasi hurmat bildiruvchi shakl bo‘lib, notanish shaxslar bilan muloqotda, jamoat transportida, yig‘ilishlarda yoki rasmiy muhitda qo‘llanishi mumkin. Shu sababli ushbu ibora rasmiy va yarim rasmiy vaziyatlarda ishlatiladi. Bu ifoda odatda kimdir tasodifan boshqa shaxsning o‘rniga o‘tirgan yoki joyini egallagan holatda qo‘llanadi. Kundalik hayotda qo‘llanish darajasi o‘rtacha hisoblanadi va ijtimoiy odob me‘yorlariga rioya qilishni ifodalaydi. Mazkur iboraga javoban ko‘pincha «مهم نیست» “Muhim emas” shakli ishlatiladi.

Xulosa. Fors tilida kechirim so‘rash tizimi shunchaki so‘zlar yig‘indisi emas, balki murakkab ijtimoiy etiket mahsulidir. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Nutqiy tabaqalanish: Uzr ifodalari vaziyatning rasmiylik darajasiga ko‘ra farqlanadi: ” ببخشید “(bebaxshid) — universal va neytral, “معذرت می‌خواهم” (ma‘zerat mixoham) — rasmiy va akademik, “شرمنده” (sharmande) esa — samimiy va norasmiy kontekstlar uchun xosdir.

Madaniy muvozanat: Har bir uzr iborasining o‘ziga xos “juft” javobi mavjud bo‘lib (masalan, sharmande uchun ahamiyati nadore), ularni to‘g‘ri qo‘llash muloqotdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashning kafolatidir.

Xulosa qilib aytganda, fors tilidagi uzr shakllarini o‘rganish til o‘rganuvchiga nafaqat grammatik to‘g‘ri gapirishni, balki Eron jamiyatida madaniy jihatdan munosib muloqot qilishni o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь: в 2-х томах. — Москва: Русский язык, 1985.
2. ابولحسن نجفی، فرهنگ فارسی عامیانه، ۲ تهران، نیلوفر ۱۳۸۷. ص ۱۲۱۲.
3. راهنمای کامل نام‌نگاری مرتضی‌پور، اکبر. (Murtazapur A. Xat yozishning to‘liq qo‘llanmasi). — تهران: انتشارات عطار، ۱۳۸۲ (2003).
4. English-Farsi Phrasebook with Useful Wordlist. — [Elektron resurs]. URL: https://1drv.ms/b/c/476787c74e5e7a72/IQC0vbH_TXe0Sqi-5jiGVJELAdtFy7wYkwApdiAasCm6LVg (Murojaat sanasi: 11.03.2024).
5. Persian Language Lessons: Apologizing in Farsi. — [Video resurs]. URL: https://youtu.be/_oGYSiI16EU (Murojaat sanasi: 11.03.2024).
6. <https://youtu.be/7t0A8ltYQ0?si=Quz0Y0UuOQWEJLJ2>
7. <https://youtu.be/fa06Tg3zqrg?si=HpFOPiej3m2cacvk>